

# **KASBIY TA'LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO TA'LIM DASTURLARINI JORIY QILISH**

*Tajibaeva Sarbinaz Tlegenovna*  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Agro IT texnikumi*  
*ISHTBDO*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy ta’limda malakali kadrlarni tayyorlash, boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlash tizimini isloh qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son farmoni ijrosini ta’minlash haqida.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy ta’lim, raqobatbardosh, samaradorlik, kadrlar, ichki va tashqi mehnat bozori.

Kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib, kasbiy ta’lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta’limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko‘p tarmoqli o‘quv muassasalari tizimini joriy qilish, kasbiy ta’lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta’minlash hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish, kasbiy ta’lim sohasida zamonaviy boshqaruvi tizimini joriy qilish, o‘rtalagi bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta’lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish, kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish, o‘qitish yakuni bo‘yicha beriladigan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishini ta’minlash chuningdek kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko‘nikma va kompetentsiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushbu jarayonda ish beruvchilar vakillari faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida belgilanganidek ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi, davlat bepul umumiyligi o‘rtalagi ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlanishini, umumiyligi o‘rtalagi ta’lim majburiyligini ta’minlash maqsadida boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash umumiyligi o‘rtalagi ta’lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o‘quvchilar uchun — davlat granti asosida, kamida umumiyligi o‘rtalagi ma’lumotga ega bo‘lgan boshqa talabgorlar uchun — to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi va o‘rtalagi va o‘rtalagi maxsus kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tashkil etilishi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi

mablag‘lari hisobidan turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil qilishga keng imkoniyatlarni yaratib beradi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilariga davlat namunasidagi hujjatlarni berishning yagona tartibi joriy etilishi, bunda kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirgan shaxslarga — diplomlar, qisqa muddatli kurslar bitiruvchilariga — o‘qigan moduliga qarab tegishincha kompetentsiyani (malakani) egallaganlik to‘g‘risidagi sertifikatlar berilishi ko‘zda tutilgan.

2026 yil 1 yanvardan boshlab o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan talab Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining «Kasbiy ta’lim» platformasi orqali shakllantirilib bu platformadan barcha yuridik va jismoniy shaxslar «Kasbiy ta’lim» platformasidan ochiq va bepul foydalanish imkoniyatini yaratsh belgilangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, xalqaro ta’lim dasturlari asosida ta’lim olgan va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o‘quvchilarga xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha diplom (sertifikat) hamda kasbiy ta’lim to‘g‘risida davlat namunasidagi diplom berilishi va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko‘nikma va kompetentsiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushbu jarayonda ish beruvchilar vakillari faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali tubdan ta’lim tizimidagi burilishlar qisqa muddat ishida o‘z samarasini berishi aniq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 01.05.2023 (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Mirziyoyev Sh.M. 2024 yil 16 oktyabrdagi PF-158-son Farmoni